



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 53-61 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BYUDJET TASHKILOTLARIDA NOMOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBINI YURITISH AMALIYOTI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI



Iskanov Xoljigit Nurkosimovich

“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Nomoliyaviy aktivlar - binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, infratuzilma obyektlari va nomoddiy resurslar - davlat sektorida jamoat xizmatlari sifati hamda davlat mulkidan foydalanish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobini yuritish amaliyotidagi tizimli muammolarni aniqlash, ularning moliyaviy hisobot ishonchliligi va boshqaruv qarorlari sifatiga ta'sirini baholash hamda takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot sifat-analitik yondashuv, hujjatlar tahlili, qiyosiy tahlil va institutsional tahlil metodlariga tayangan holda amalga oshirildi. Natijalar tarixiy qiymat asosida baholashning ustunligi aktivlarning real iqtisodiy qiymatini to'liq aks ettirmasligi, inventarizatsiya va ichki nazorat mexanizmlari yetarli darajada samarali emasligi, amortizatsiya hisobida real foydalanish sharoitlari yetarlicha inobatga olinmasligi hamda raqamlashtirish darajasi pastligini ko'rsatdi. Xalqaro tajriba IPSAS talablari asosida to'liq hisoblash metodiga bosqichma-bosqich o'tish davlat sektori hisobotlarining shaffofligi, taqqoslanishi va hisobdorligini oshirishini tasdiqlaydi. Maqolada O'zbekiston sharoitida nomoliyaviy aktivlar hisobini modernizatsiya qilish uchun metodologik, institutsional va texnologik chora-tadbirlar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *nomoliyaviy aktivlar, byudjet tashkilotlari, davlat sektori hisobi, aktivlarni baholash, inventarizatsiya, amortizatsiya, raqamli hisob tizimi, IPSAS, to'liq hisoblash metodi.*

Аннотация. *Нефинансовые активы - здания, сооружения, оборудование, объекты инфраструктуры и нематериальные ресурсы - занимают важное место в государственном секторе и напрямую влияют на качество общественных услуг, а также на эффективность использования государственного имущества. Целью данной статьи является выявление системных проблем в практике учета нефинансовых активов в бюджетных организациях, оценка их влияния на достоверность финансовой отчетности и качество управленческих решений, а также обоснование направлений совершенствования. Исследование проведено на основе качественно-аналитического подхода с применением методов анализа документов, сравнительного и институционального анализа. Результаты показывают, что преобладание оценки по исторической стоимости не отражает реальную экономическую стоимость активов, механизмы инвентаризации и внутреннего контроля недостаточно эффективны, при начислении амортизации не всегда учитываются фактические условия эксплуатации, а уровень цифровизации остается ограниченным. Международный опыт подтверждает, что поэтапный переход к методу начисления в соответствии с требованиями IPSAS повышает прозрачность, сопоставимость и подотчетность*

отчетности государственного сектора. В статье предложены методологические, институциональные и технологические меры по модернизации учета нефинансовых активов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: нефинансовые активы, бюджетные организации, учет в государственном секторе, оценка активов, инвентаризация, амортизация, цифровая учетная система, IPSAS, метод начисления.

Abstract. *Non-financial assets, including buildings, facilities, equipment, infrastructure assets and intangible resources, play a crucial role in the public sector and directly influence the quality of public services and the efficiency of public property management. The purpose of this article is to identify systemic problems in the accounting practice of non-financial assets in budget organizations, assess their impact on the reliability of financial reporting and the quality of managerial decision-making, and substantiate improvement directions. The study is based on a qualitative-analytical approach, document analysis, comparative analysis and institutional analysis. The findings show that the dominance of historical cost measurement does not fully reflect the real economic value of assets; inventory and internal control mechanisms remain insufficiently effective; depreciation accounting does not always consider actual operating conditions; and the level of digitalization is limited. International experience confirms that a gradual transition to accrual accounting based on IPSAS requirements improves the transparency, comparability and accountability of public sector reporting. The article proposes methodological, institutional and technological measures for modernizing non-financial asset accounting in Uzbekistan.*

Keywords: *non-financial assets, budget organizations, public sector accounting, asset valuation, inventory, depreciation, digital accounting system, IPSAS, accrual accounting.*

Kirish

Zamonaviy davlat moliya tizimida byudjet tashkilotlarining samarali faoliyati ko'p jihatdan ularning tasarrufidagi nomoliyaviy aktivlarni hisobga olish, baholash va boshqarish tizimining sifatiga bog'liq. Nomoliyaviy aktivlar davlat sektorining moddiy-texnik bazasini shakllantiruvchi asosiy resurslar bo'lib, ular tarkibiga bino va inshootlar, mashina va uskunalar, transport vositalari, infratuzilma obyektlari hamda nomoddiy aktivlar kiradi. Ushbu aktivlar iqtisodiy mazmuni, xizmat muddati va foydalanish maqsadiga ko'ra turlicha bo'lganligi sababli, ularni hisobga olishda differensial va tizimli yondashuv talab etiladi.

Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobining to'g'ri tashkil etilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash bilan birga, davlat mulkidan samarali foydalanish, resurslarni optimal taqsimlash hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo'nalish davlat moliyaviy boshqaruv tizimining muhim komponenti sifatida qaraladi.

Xalqaro amaliyotda davlat sektori buxgalteriya hisobi tizimi so'nggi o'n yilliklarda sezilarli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Xususan, Xalqaro davlat sektori buxgalteriya hisobi standartlari (International Public Sector Accounting Standards - IPSAS) kassa asosidagi hisob tizimidan to'liq hisoblash (accrual basis) modeliga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv davlat aktivlari va majburiyatlarini to'liqroq aks ettirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, taqqoslanishi va hisobdorligini oshirish imkonini beradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, accrual asosidagi hisob tizimi nomoliyaviy aktivlarning to'liq inventarizatsiyasini yuritish, amortizatsiyani iqtisodiy mazmuniga mos hisoblash hamda uzoq muddatli investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan IPSAS standartlari davlat sektori moliyaviy boshqaruvini modernizatsiya qilishning asosiy instrumentlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar sharhi

Davlat sektori buxgalteriya hisobi va nomoliyaviy aktivlarni boshqarish masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. IPSASB tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar davlat aktivlari va majburiyatlarini moliyaviy hisobotlarda to'liq aks ettirish, aktivlarni tan olish, baholash, amortizatsiya qilish va ochib berish bo'yicha metodologik asos vazifasini bajaradi. Ushbu standartlar ayniqsa to'liq hisoblash metodiga o'tish jarayonida davlat moliyaviy boshqaruvi sifati va hisobdorligini oshirishga yo'naltirilgan.

IFAC va CIPFA tomonidan e'lon qilinadigan International Public Sector Financial Accountability Index davlat sektori moliyaviy hisobotining global rivojlanish tendensiyalarini baholashda muhim manba hisoblanadi. Mazkur indeks natijalari ko'plab mamlakatlarda kassa asosidagi hisob tizimidan accrual asosidagi tizimga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Bu jarayonda institutsional salohiyat, kadrlar malakasi, axborot tizimlari va normativ-huquqiy baza uyg'un rivojlanishi zarur.

Jahon banki va Osiyo Taraqqiyot Banki hisobotlarida davlat moliyaviy boshqaruvini modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalar, integratsiyalashgan axborot tizimlari va ichki nazorat mexanizmlari alohida omil sifatida qayd etiladi. Xususan, ADBning O'zbekiston bo'yicha yo'l xaritasida IPSASga o'tish uzoq muddatli va bosqichli jarayon sifatida talqin qilinib, metodologik asoslarni takomillashtirish, kadrlarni qayta tayyorlash va axborot tizimlarini moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar - Karimov, Tursunov, Ismailov va Xodjaev ishlarida O'zbekiston byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, ichki nazorat, aktivlar hisobi hamda IPSASga moslashuv masalalari yoritilgan. Ushbu ishlarda normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi bilan birga amaliyotda inventarizatsiya jarayonlarining formalligi, aktivlarni baholashda tarixiy qiymatning ustunligi, amortizatsiya hisobidagi metodologik tafovutlar va raqamli tizimlarning yetarlicha integratsiyalashmaganligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nomoliyaviy aktivlar hisobini takomillashtirish faqat hisob texnikasini yangilash emas, balki moliyaviy axborotning boshqaruv qarorlari uchun foydaliligini oshirish, davlat mulki harakatini real vaqt rejimida kuzatish va aktivlarning real iqtisodiy qiymatini hisobotlarda aks ettirish bilan bog'liq kompleks jarayondir.

Materiallar va metodlar

Mazkur tadqiqot sifat-analitik (qualitative-analytical) dizayn asosida amalga oshirildi. Tadqiqot yondashuvi davlat sektori moliyaviy hisob tizimini kompleks o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda uchta o'zaro to'ldiruvchi ilmiy-metodologik yondashuv qo'llanildi.

Birinchiidan, hujjatlar tahlili (document analysis) metodi orqali O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, Byudjet kodeksi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Ushbu bosqichda nomoliyaviy aktivlarni tan olish, baholash, amortizatsiya qilish va hisobda aks ettirishga oid amaldagi tartiblar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Ikkinchiidan, qiyosiy tahlil (comparative analysis) metodi yordamida milliy hisob amaliyoti Xalqaro davlat sektori buxgalteriya hisobi standartlari (IPSAS) hamda ayrim rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Bu yondashuv orqali kassa asosidagi hisob tizimi va accrual asosidagi tizim o'rtasidagi farqlar hamda ularning nomoliyaviy aktivlar hisobiga ta'siri baholandi.

Uchinchiidan, institutsional tahlil (institutional analysis) metodi asosida byudjet tashkilotlarida hisob tizimining samaradorligiga ta'sir etuvchi tashkiliy, texnologik va inson kapitali omillari o'rganildi. Ushbu metod yordamida raqamlashtirish darajasi, ichki nazorat mexanizmlari va axborot tizimlarining integratsiya holati kompleks baholandi.

Tadqiqotning empirik bazasi xalqaro va mintaqaviy moliyaviy hisobot hamda hisobdorlik indikatorlariga asoslandi. Xususan, IFAC va CIPFA tomonidan e'lon qilingan International Public Sector Financial Accountability Index (2025) ma'lumotlari, Jahon banki va Osiyo Taraqqiyot Banki hisobotlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi bo'yicha PEFA (2024) baholash natijalari asosiy axborot manbasi sifatida foydalanildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar tizimlashtirilib, statistik umumlashtirish va strukturaviy tahlil asosida qayta ishlangan hamda natijalar jadval va grafik ko'rinishida ifodalangan. Bu tadqiqot xulosalarining ishonchliligini oshirish va empirik asoslangan ilmiy natijalar olish imkonini berdi.

Natijalar

Tahlil natijalari byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobida to'rtta asosiy muammoli yo'nalishni aniqladi. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda hisob tizimining samaradorligini pasaytiradi. 1-rasm ushbu muammolarning tizimli bog'liqligini ko'rsatadi.

Baholashning cheklovlari. Amalda keng qo'llanilayotgan tarixiy qiymat usuli soddaligi va hujjatlashtirish osonligi bilan ajralib turadi. Biroq vaqt o'tishi bilan aktivlarning real bozor qiymati o'zgaradi, hisobda esa bu o'zgarish to'liq aks etmaydi. Natijada moliyaviy hisobotlarda aktivlar haqiqiy iqtisodiy qiymatidan uzoqlashadi va resurslarni taqsimlashda noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.


Inventarizatsiyaning formal tus olishi. Ko'plab holatlarda inventarizatsiya faqat hisobot talablarini bajarish uchun o'tkaziladi; aktivlarning real holati va foydalanish darajasi yetarli tahlil qilinmaydi. Ayrim aktivlar hujjatlarda mavjud bo'lib, amalda foydalanilmaydi yoki yaroqsiz holga kelgan bo'lishi nazorat mexanizmlarining zaifligini ko'rsatadi.

Amortizatsiya muammosi. Aktivlarning xizmat muddati ko'pincha normativ asosda belgilanadi, ammo real foydalanish sharoitlari yetarlicha inobatga olinmaydi. Natijada amortizatsiya ajratmalari aktivning haqiqiy eskirish darajasini aks ettirmaydi va xarajatlar

hamda moliyaviy natijalarni noto'g'ri shakllantirishi mumkin. To'liq hisoblash metodi aynan shu nuqtada ustunlikka ega.

1-rasm.

Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobidagi tizimli muammolar



1-rasm. Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobidagi tizimli muammolar

Manba: muallif tomonidan IPSAS, IFAC/CIPFA (2025), PEFA (2024) ma'lumotlari asosida tuzilgan

Manba: muallif tomonidan IPSAS, IFAC/CIPFA (2025) va PEFA (2024) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Raqamlashtirish darajasi. Ko'plab byudjet tashkilotlarida hisob ishlari hali ham qo'lda yoki qisman avtomatlashtirilgan shaklda yuritiladi. Bu ma'lumotlarni qayta ishlashni sekinlashtiradi, inson omiliga bog'liq xatolarni oshiradi va aktivlar harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini cheklaydi. Shu bilan birga, texnologiyalarni joriy etishning o'zi avtomatik samaradorlik keltirmaydi: boshqaruv tizimi va foydalanish madaniyati rivojlanmagan holda zamonaviy axborot tizimlari ham kutilgan natijani bermaydi.

Xalqaro amaliyot tahlili milliy muammolarni kengroq kontekstda baholash imkonini beradi. 1-jadvalda O'zbekiston amaliyoti asosiy parametrlar bo'yicha xalqaro tendensiya bilan qiyoslangan.

1-jadval.

Davlat sektori hisobi bo'yicha xalqaro tendensiya va O'zbekiston amaliyotining qiyosi

Parametr	Xalqaro tendensiya	O'zbekiston amaliyoti
Hisob bazasi	To'liq hisoblash (accrual) tomon barqaror harakat	Asosan kassa va qisman hisoblash; milliy standartlar amal qilmoqda


Standartlar	IPSAS talablari bilan uyg'unlashuv; 2030-yilda accrual metodidan foydalanuvchi yurisdiksiyalarning 81 foizi IPSAS asosida hisobot berishi kutilmoqda	IPSASga muvofiqlashtirilgan milliy standartlar shakllanmoqda; to'liq o'tish yakunlanmagan
Baholash usuli	Real va bozor qiymatiga yaqin yondashuvlar kuchaymoqda	Tarixiy qiymat ustunligi saqlanmoqda; bozor asosida qayta baholash cheklangan
Islohot holati	Bosqichli global jarayon; aksariyat davlatlar o'tish bosqichida	ADB yo'l xaritasi doirasida bosqichli o'tish; institutsional salohiyat rivojlanmoqda
Asosiy to'siqlar	Salohiyat, moliyaviy resurs va axborot tizimlari yetishmovchiligi	Metodologik, institutsional va texnologik omillar ta'siri kuchli

Manba: IFAC/CIPFA (2025), ADB (2021) va PEFA (2024) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-rasm to'liq hisoblash metodiga o'tishning global dinamikasi va 2030-yilga prognozini aks ettiradi. 2013-yildagi 18 foizdan 2025-yilga kelib 45 foizga yetgan ko'rsatkich 2030-yilga borib 56 foizga yetishi kutilmoqda; bunda accrual metodidan foydalanuvchi yurisdiksiyalarning 81 foizi IPSAS asosida hisobot berishi prognoz qilinmoqda.

2-rasm.

Davlat sektori hisobot bazasining o'tish dinamikasi va 2030-yilga prognozi



Manba: IFAC; CIPFA. International Public Sector Financial Accountability Index: 2025 Status Report. — New York: IFAC, 2025; muallif hisob-kitoblari.
Izoh: 2025-yildan keyingi ko'rsatkichlar IFAC/CIPFA trend prognozi asosida. 2030-yilda accrual foydalanuvchilarning 81% IPSAS bo'yicha hisobot berishi kutilmoqda.

Izoh: 2025-yildan keyingi ko'rsatkichlar IFAC/CIPFA trend prognozi asosida keltirilgan.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobida aniqlangan muammolar alohida texnik kamchiliklar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan tizimli xarakterga ega omillar majmuasidir. Xususan, baholash jarayonlaridagi noaniqliklar ichki nazorat mexanizmlarining zaiflashishiga olib keladi, nazorat tizimlaridagi yetishmovchilik esa moliyaviy hisobotlarning ishonchligini pasaytiradi. Ushbu o'zaro bog'liq jarayonlar "zanjirli ta'sir" shaklida rivojlanib, umumiy hisob tizimi samaradorligining pasayishiga sabab bo'ladi.

Milliy amaliyot tahlili O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimida tarixiy qiymat tamoyilining ustunligi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Bu holat xalqaro miqyosda keng qo'llanilayotgan to'liq hisoblash va adolatli qiymatga yaqinlashish tendensiyalaridan ma'lum darajada ortda qolishni anglatadi. Natijada moliyaviy hisobotlarning xalqaro taqqoslanishi cheklanadi hamda global investitsion qarorlar uchun zarur bo'lgan axborot sifati pasayadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat moliyasi boshqaruvining yagona institutsional tizimda tashkil etilishi hisob, hisobot va nazorat jarayonlarini uyg'unlashtirish imkoniyatini oshiradi. Biroq PEFA baholashlari IPSAS standartlariga o'tish jarayonida institutsional salohiyatni rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish va texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba davlat sektorida buxgalteriya hisobini muvaffaqiyatli transformatsiya qilish faqat normativ-huquqiy bazani yangilash bilan cheklanmasligini tasdiqlaydi. Masalan, Saudiya Arabistoni tajribasida 2017-yildan boshlab bosqichma-bosqich to'liq hisoblash tizimiga o'tish maxsus markazlashtirilgan tuzilma orqali boshqarilgan. Bu yondashuv milliy, sektor va tashkilot darajasidagi islohotlarni muvofiqlashtirishning muhimligini amaliy jihatdan ko'rsatadi.

Mazkur tajribalar hisob tizimini modernizatsiya qilish jarayoni uch asosiy komponentning uyg'un rivojlanishini talab etishini ko'rsatadi: institutsional islohotlar, inson kapitalini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish. Ushbu omillar birgalikda ishlamagan taqdirda, hatto ilg'or standartlar ham kutilgan natijani bermaydi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda nomoliyaviy aktivlar hisobini takomillashtirish quyidagi strategik yo'nalishlarni talab etadi:

- baholash metodologiyasini qayta ko'rib chiqish va uni adolatli qiymat hamda xalqaro yondashuvlarga yaqinlashtirish;
- inventarizatsiya jarayonini formal hisobot vositasidan boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi analitik instrumentga aylantirish;
- raqamli buxgalteriya tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish va ularni integratsiyalashgan platformalarga birlashtirish;
- IPSAS talablariga mos ravishda normativ-huquqiy bazani izchil modernizatsiya qilish va kadrlar salohiyatini oshirish.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobini yuritish tizimi hali to'liq shakllangan, mukammal va barqaror institut darajasiga

yetmaganini, u transformatsiya jarayonining faol bosqichida rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ushbu tizim ichki metodologik nomuvofiqliklar, tashkiliy cheklovlar hamda texnologik rivojlanish darajasidagi tafovutlar bilan tavsiflanadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, mavjud muammolar - jumladan baholash jarayonlaridagi noaniqliklar, ichki nazorat mexanizmlarining zaifligi, amortizatsiya hisobining iqtisodiy mazmunga to'liq mos kelmasligi hamda raqamlashtirish darajasining pastligi - alohida emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini kuchaytiruvchi tizimli omillar majmuasini tashkil etadi. Bu esa hisob tizimi samaradorligiga kompleks salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba davlat sektori buxgalteriya hisobi tizimlari IPSAS standartlari asosida to'liq hisoblash modeliga bosqichma-bosqich o'tish tendensiyasini namoyon etayotganini ko'rsatadi. Ushbu jarayon moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, taqqoslanishi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston amaliyoti esa mazkur yo'nalishda bosqichli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobini takomillashtirishning eng muhim strategik vazifasi uni oddiy hujjatlashtirish jarayonidan chiqarib, boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi analitik va prognozlovchi instrumentga aylantirishdan iborat.

Shu bilan birga, hisob tizimining samaradorligini oshirish faqat texnik yangilanishlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. U metodologik asoslarning modernizatsiyasi, institutsional salohiyatning mustahkamlanishi hamda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashgan holda joriy etish bilan uyg'un ravishda amalga oshirilishi zarur. Faqat ushbu uch komponentning birgalikdagi rivoji hisob tizimining haqiqiy iqtisodiy va boshqaruv ahamiyatini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. International Federation of Accountants. (2025). International Public Sector Financial Accountability Index 2025. IFAC.
2. CIPFA. (2025). Public Financial Management and IPSAS Implementation Report. Chartered Institute of Public Finance and Accountancy.
3. World Bank. (2023). World Development Report: Digital Transformation in Public Finance. Washington, DC: World Bank Group.
4. Asian Development Bank. (2021). Public Financial Management Reforms in Uzbekistan: Roadmap for IPSAS Implementation. Manila: ADB.
5. Public Expenditure and Financial Accountability (PEFA). (2024). Uzbekistan PEFA Assessment Report. Washington, DC.
6. International Public Sector Accounting Standards Board (IPSASB). (2022). Handbook of International Public Sector Accounting Standards. IFAC.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2019). Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha yo'riqnoma. Toshkent.
8. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2016). Buxgalteriya hisobi to'g'risida. Toshkent.
9. Karimov, N. (2022). Davlat sektorida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. Moliya va bank islohotlari jurnali, 4(2), 55–63.

10. Tursunov, B. (2023). Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisob va ichki nazorat tizimi samaradorligi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 1(6), 112–118.
11. Ismailov, S. (2021). Byudjet tashkilotlarida aktivlar hisobini yuritish amaliyoti va muammolar. *O‘zbekiston iqtisodiyoti: tahlil va prognozlar*, 3(1), 44–50.
12. Xodjaev, A. (2020). Davlat sektori buxgalteriya hisobi islohotlari va IPSASga moslashuv masalalari. *Moliya va iqtisodiy rivojlanish jurnali*, 2(3), 71–78.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

